

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi quyidagi lavozim uchun ish o'rni mavjud ekanligini e'lon qiladi

[Umumiy ma'lumotlar]

1. Ishga qabul qilinuvchilar soni
1 kishi

2. Ish joyi

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi

3. Topshiriladigan ish va vazifalar

Konsullik bo'limi (vizalar, Yaponiya fuqarolarini himoyasi, Konsullik bo'limiga aloqador tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish va muvofiqlashtirish, verbal notalar tayyorlash va hokazo).

4. Ish sharoitlari va boshqalar

(1) Shartnoma muddati

2025 yil 1-iyul sanasidan boshlanadi.

※ 3 oylik sinov muddatidan so'ng, rasman lavozimga qabul qilinadi.

(2) Oylik maoshi hamda mukofot pullari

Elchixona qoidalariga muvofiq belgilanadi.

(3) Ish jadvali

Elchixona ish vaqtি bo'yicha ishlanadi. Biroq, zaruriy hollarda ushbu vaqtdan tashqari vaqtarda ham ishlashingizni so'rashimiz mumkin.

[Arizachilarga qo'yiladigan talablar]

1. Fuqarolik

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi lozim

2. Talab qilinadigan malaka, qobiliyat va sifatlar.

(1) Oliy ta'lim muassasasi(yoki unga teng muassasa)ni bitirgan yoki bitirish arafasida bo'lishi.

(2) o'zbek va rus tillarida mehnat faoliyatini bemalol bajara oladigan darajada yuqori bilimga ega bo'lishi. Undan tashqari mehnat

- faoliyatini bajarish uchun yetarli minimal yapon va ingliz tilini bilishi.
- (3) arizachi, ariza vaqtida 40 yoshdan oshmagan bo'lishi
 - (4) o'z mehnat vazifalariga jiddiylik va kuchli ishtiyoq bilan yondasha olishi.
 - (5) yuqori darajadagi stressga chidamlilik
 - (6) haydovchilik guvohnomasi bo'lsa, maqsadga muvofiq.

3. Boshqa talablar

- (1) Toshkent shahrida doimiy ro'yxatga olingan bo'lishi.
- (2) Jismonan hamda ruhan sog'lom bo'lishi.
- (3) Muqaddam sudlanmagan bo'lishi.

[Ariza topshirish tartibi]

1. Quyidagi ariza uchun kerakli hujjatlar 2025-yil, 30-may, soat 17:30 gacha Elchixonaga shaxsan olib kelinishi yoki elektron pochta orqali (hujjatlar ilova qilingan holda) jo'natilishi kerak. Shaxsiy ma'lumotlar faqat tanlov maqsadida ishlatalinadi va maxfiylik qat'iy himoya qilinadi (Ish arizasi uchun topshirilgan hujjatlaringizni qaytarilmasligiga e'tibor bering).

(1) Rezyume: rus, ingliz yoki yapon tilida to'ldirib, ism-sharif, rasm, tug'ilgan sana, yashash joyi, telefon raqami, mehnat faoliyati hamda malakalaringizni ko'rsatib o'ting.

- (2) passport nusxasi
- (3) diplom hamda boshqa malakalarni tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi.

2. Tanlov jarayoni va jadvali.

Ariza topshirishning oxirgi muddati: 2025-yil, 30-may soat 17:30 gacha

Birinchi bosqich: hujjatlar asosida saralash (faqat birinchi bosqichdan o'tgan arizachilar, keyingi kun habardor qilinadi).

Ikkinchi bosqich: Yozma imtihon hamda suhbat.

[Ariza topshirish manzili]

O'zbekistondagi Yaponiya Elchixonasi, Mas'ul shaxs: Suzuki
Quyidagi electron pochta orqali hujjatlaringizni jo'natishingiz mumkin.

homepage@ts.mofa.go.jp